

## **VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIY HAYOTI VA IJODI**

**M.A.Mirzaeva,**  
A.Qodiriy nomidagi JDPI  
Musiqiy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

**Isroilova Aziza,**

1- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan kompozitor V.A.Uspenskiyning xizmatlari to'g'risida hayot yo'li ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekspeditsiya, etnografiya, folklor, musiqa etnografi, kompozitor, dirijor

San'atshunoslik fanlari doktori, O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, musiqa etnografi, kompozitor, dirijor, ajoyib murabbiy Viktor Aleksandrovich Uspenskiy 30-yil charchamasdan o'zbek va turkman xalqlarining musiqiy boyligi bo'lgan xalq qo'shiqlarini xalq ijodiyotini chuqur o'rganib ularni notaga olgan holda hozirgacha saqlanib kelishida katta hissa qo'shgan hisoblanadi. U kishi O'rta Osiyo xalqlarining etnograf olimi o'zbek musiqa merosini to'plashda uni rivojlanishiga yangi kadrlarni ham shu sohada tayyorlab borishiga ulkan hissa va xizmatlarini qo'shgan. V.A.Uspenskiy 1879-yili 31-avgustda Rossiyaning Kaluga degan shahrida tug'iladi. Viktor tug'ilganidan so'ng ko'p o'tmay, uning oilasi Qizg'izistonning O'sh shahariga ko'chib o'tadi. Uning bolalik chog'lari shu yerda ya'ni O'sh shahrida o'tadi. Otasi unga skripkadan onasi esa fortepianodan saboq berishdi. Uni keyinchalik Gimnaziyani bitirganidan so'ng, Oremburg Harbiy kadet korpusiga o'qishga berishadi. Bu yerda u o'qigan vaqtlarida ham musiqa bilan shug'ullanishni davom ettiradi. Kadet korpusidagi harbiy va simfonik orkestrida kontrabas va arfa sozlarini chaldi. 1898-yili kadet korpusini tamomladi va Kavkazdagi Dragun Shimol polkiga bo'lim kamandiri etib tayinlandi. Mazkur polkdagi harbiy xizmat undagi musiqaga bo'lgan havasini so'ndira olmadi, u

musiqa amaliyoti va nazariyasi bilan astoydil shug'ullandi. U iste'foga chiqib 1908-yilda Peterburg Konservatoriyasiga o'qishga kirdi. Kompozitsiya bo'yicha professor A.Lyadov sinfida saboq ola boshladi. Peterburg shahrining doimo salqin havosi uning sog'ligiga ta'sir qilib, oddiy shamollashdan o'pkaga ham o'tib boradi. Uzoq vaqt davolanib chiqqanidan keyin Uspenskiy vrachlarning maslahatiga ko'ra o'qishini vaqtincha to'xtatib, 1910 yilda Shvesariyaning Davos va Germaniyaning Lepsig shaharlarida davolanib qaytadi va qaytib o'qishini davom ettiradi. 1913-yili Peterburg Konservatoriyasini tamomlab, "Erkin san'atkor" diplomoni oldi. Bir yil davomida ijod bilan shug'ullandi. 1914-yili Birinchi jaxon urushi boshlandi va uni armiya safiga chaqiradi. 1917-yilgacha xizmat qildi. 1917- yil Fevral inqilobidan so'ng, Uspenskiy Petrograd konservatoriyasi qaroriga binoan konservatoriyaning direktori A.K.Glazunov tomonidan qo'l qo'yilgan buyrug'iga asosan Turkiston Respublikasiga "o'sha davrdagi atama" xalq musiqasi va qo'shiqlarini o'rganish yig'ib to'plash uchun ishga jo'natiladi. O'sha davrlarda Turkiston o'lkasida xalq san'atini faol rivojlantirish uchun musiqali etnografik komissiya tuziladi. 1919-yili Uspenskiy tashabbusi bilan Toshkentdagi Baland masjid, Rohat bog'ida xalq konservatoriyasining bo'limi ochildi. O'sha yerda uning pedagoglik faoliyati boshlangan edi.

Uspenskiy ko'p vaqtini etnografiya ishlariga bag'ishladi. Bir necha yillar davomida O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarning qo'shiqlarini notaga yozib oldi. O'rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o'rganish, targ'ibot qilish uchun ilmiy markaz tashkil etilib, unga Uspenskiy rahbar etib tayinlandi. U 1923-yili Buxoroga borib Shashmaqom bilimdonlari Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodovlar ijrosida shashmaqomni notaga yozib olishga muyassar bo'ladi.

Uspenskiy 1925, 1927, 1929- yillarda Turkmaniston taklifiga binoan folklori ekspeditsiyalarini tashkil etib, Turkman xalq musiqasini notaga yozib oladi. Viktor Uspenskiy xalq va qo'shiq kuylarini yozib olish bilan birga ularni qayta ishladi, musiqa san'atining turli shakli va janrlarida rang-barang asarlar ham yaratdi. Xalq ohanglarini notaga yozib olish yoki notalashtirish bir qancha

mehnatni talab etardi. Bu ishlarda unga Buxoro xalq hofizlari, musiqachilar Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos G'aniev, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonovlar, Samarqandlik-Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarovlar, Farg'ona vodiysidan Usta Olim Komilov, Yusuf qiziq Shakarjonovlar, Xorazmlik Matyoqub Xarratov, Madpano Xudoyberganov, Madrayim Yoqubovlar O'zbek xalqining qimmatli musiqiy merosini yozib qoldirishda katta hissa qo'shganlar. V.A.Uspenskiy Farg'ona vodiysida keng tarqalgan katta ashulalarni ham birinchi bo'lib notaga olgan. Katta ashulalar musiqa jo'rligisiz ijro etilib, ashulachidan katta mahorat talab etardi. Bu ashulalarni o'zbek xalqi juda sevib tinglashardi. Katta ashulalarni ijrochilari Akbar Xaydarov, Muhammadjon Do'stmuhammedov va Yunus Rajabiylar bo'lgan. Keyinchalik yangi ishga qo'l urgan Uspenskiy, shoshmaqomning ashula qismini Shonazar Soxibovdan yozib olgan. Shonazar Soxibov Domla Halim Ibodovning o'g'li bo'lgan. "Rost", "Talqini Ushshoq", "Nasri Ushshoq", "Sabo" shular jumlasidan. Bu ishlarni u oxirigacha yetkaza olmadi. U kishi faqat o'zining ijodida maqomlardan katta foydalana oldi. O'zbek milliy orkestriga moslashtirib yozib berdi. Keyinchalik u kishining ijodida fortepiano ovoz uchun bir qancha qo'shiqlar bilan rang-barang asarlar ham yaratdi. Ikkinchi jaxon urushida u samarali ijod qildi. Xor uchun "O'zbekiston", "Pahlavonlar jangga otlaning", "Yur botirlar" kabi qo'shiqlari. V.A.Uspenskiy quyidagi to'plam va maqolalar muallifi hamdir. "Shashmaqom", "Maktab bolalari qo'shig'i", "Farg'ona qo'shiqlari", "Buxoro qo'shiqlari va maqom parchalari". "Katta ashula", "O'zbek klassik musiqasi" va boshqalar. Viktor Uspenskiy ijodida G.Mushel bilan hamkorlikda yaratgan "Farhod va Shirin" musiqali drammasi alohida o'rin tutadi. Mazkur asar musiqali drammalarni yaratishda ko'p ovozli musiqaning shakllaridan foydalanishga asos soldi. Musiqa etnografi, kompozitor V.A.Uspenskiy 1929- yili Turkmaniston xalq artisti, 1937-yili O'zbek xalq artisti fahriy unvoni, 1943 yili San'atshunoslik doktori ilmiy darajasini olgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek musiqa adabiyoti N.Yuldasheva N. Raxmatov. Toshkent “Iqtisod va Moliya” 2010.
2. Ikrom Akbarovning “Yodga olish”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot. Toshkent 1980.
3. Yaqin uzoq sharq musiqasi F.M.Karomatov D.Rashidova. Toshkent 1981.